

Date: 7th March-2026

AYOLLAR JINSIY A'ZOLARINING SURUNKALI YALLIG'LANISH
KASALLIKLARINING BEPUSHTLIKKA TA'SIRI

Nishanova Yulduz Khatamovna, Irgasheva Marjona Anvarovna

Toshkent Davlat Tibbiyot Universiteti Uzbekistan, Tashkent

Annotatsiya: Ayollar bepushtligining asosiy sabablaridan biri jinsiy a'zolarining surunkali yallig'lanish kasalliklari hisoblanadi. Ushbu patologiya asosan reproduktiv yoshdagi, ya'ni 20–35 yosh oralig'idagi ayollarda ko'proq uchraydi [1]. Surunkali yallig'lanish jarayoni bachadon, bachadon naylari va tuxumdonlarda morfologik hamda funksional o'zgarishlarni keltirib chiqaradi. Natijada bachadon naylarining o'tkazuvchanligi buzilishi, bitishmalar hosil bo'lishi va endometriy funksiyasining izdan chiqishi kuzatiladi. Bu esa urug'lanish jarayonining buzilishiga va bepushtlik rivojlanishiga olib keladi [2]. Shu sababli jinsiy a'zolarining surunkali yallig'lanish kasalliklarini o'z vaqtida aniqlash va samarali davolash reproduktiv salomatlikni saqlashda muhim ahamiyatga ega [3].

Kalit so'z: Jinsiy a'zolar surunkali yallig'lanishi, bachadon naylari, bepushtlik, bitishma jarayoni, reproduktiv yosh.

Ishning maqsadi: Ayollar jinsiy a'zolarining surunkali yallig'lanish kasalliklarining bepushtlik rivojlanishidagi o'rnini o'rganish

Material va metodlar: Tadqiqot Toshkent davlat tibbiyot universiteti ko'p tarmoqli klinikasining ginekologiya bo'limida 2022–2024-yillar oralig'ida bepushtlik tashxisi bilan murojaat qilgan 60 nafar ayol ishtirokida o'tkazildi. Bemorlarning yoshi 20–40 yosh oralig'ida bo'lib, o'rtacha yosh $29 \pm 4,1$ yilni tashkil etdi. Tanlov mezonlariga ko'ra, 2 yildan ortiq homilador bo'lmagan, ilgari jinsiy a'zolarida katta jarrohlik amaliyoti o'tkazilmagan va og'ir ekstragenital kasalliklari bo'lmagan ayollar qabul qilindi. Barcha bemorlarga klinik ko'rik, ultratovush tekshiruvi, laborator tahlillar (umumiy surtma, bakteriologik tekshiruv) o'tkazildi. Zarur hollarda bachadon naylari o'tkazuvchanligini baholash maqsadida gisterosalpingografiya tekshiruvi bajarildi. O'rganilgan 60 nafar ayoldan 40 nafarida anamnezida jinsiy a'zolar yallig'lanishi 3 yildan ko'pligi aniqlandi.

Natijalar: O'rganilgan 60 nafar ayol orasida 38 nafarida (63 %) jinsiy a'zolarining surunkali yallig'lanish kasalliklari aniqlangan. Ulardan 22 nafarida (36 %) surunkali salpingooforit, 10 nafarida (17 %) surunkali endometrit, 6 nafarida (10 %) aralash yallig'lanish jarayoni kuzatilgan. Bachadon naylari o'tkazuvchanligi buzilishi 20 nafar bemorda (33 %) aniqlangan bo'lib, shundan 12 nafarida bir tomonlama, 8 nafarida esa ikki tomonlama yopilish qayd etilgan. Shuningdek, kichik chanoq sohasida bitishma jarayoni 15 nafar bemorda (25 %) aniqlangan. Surunkali yallig'lanish davomiyligi 3 yildan ortiq bo'lgan ayollarda bepushtlik ko'rsatkichi yuqori ekanligi kuzatildi.

Xulosa. Ayollar jinsiy a'zolarining surunkali yallig'lanish kasalliklari bepushtlik rivojlanishida muhim etiologik omil hisoblanadi. Surunkali yallig'lanish bachadon naylarining o'tkazuvchanligini buzadi, bitishmalar hosil qiladi va reproduktiv tizimning normal faoliyatini izdan chiqaradi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, reproduktiv



Date: 7th March-2026

yoshdagi ayollarda surunkali yallig'lanish jarayonlarini erta aniqlash va kompleks davolash bepushtlikning oldini olishda muhim ahamiyatga ega. Natijada, jinsiy a'zolarining surunkali yallig'lanish kasalliklarini o'z vaqtida tashxislash va davolash individual davolash taktikasini to'g'ri belgilash hamda reproduktiv funksiyani tiklash imkoniyatini oshiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. World Health Organization (WHO). Infertility definitions and global prevalence data. Geneva: WHO; 2020.
2. American Society for Reproductive Medicine (ASRM). Diagnostic evaluation of infertility: a committee opinion. Fertility and Sterility. 2021.
3. European Society of Human Reproduction and Embryology (ESHRE). Guideline on the management of female infertility. 2022.
4. Simpson W.L., Beitia L.G., Mester J. Hysterosalpingography: a reemerging study. Radiographics. 2006;26(2):419–431.
5. O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi. Ayollar bepushtligini tashxislash va davolash bo'yicha klinik tavsiyalar. Toshkent; 2021.

